2026-yil
9(2)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Boboyeva Sayyora Boboradjabovna, psixologiya fanlari doktori, professor, Tojikiston
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

Turaxonov Abdukarim Eshkuziyevich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

UDK: 159.9:005.32:37.014.6

Turaxonov Abdukarim Eshkuziyevich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Ta'lim sifati nazorati bo'limi boshlig'i, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

MAKTAB TA'LIMI TASHKILOTLARI RAHBARLARIDA BOSHQARUV KOMPETENSIYASI TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOHIYATI VA TUZILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab ta'limi tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv kompetensiyasi tushunchasining ijtimoiy-psixologik mohiyati va tarkibiy tuzilishi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. "Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining mazmuniy farqlari ochib berilib, xorijiy hamda mahalliy ilmiy adabiyotlarda mavjud yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi. Boshqaruv kompetensiyasining rahbar faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, uning kasbiy faoliyat samaradorligi bilan bog'liqligi yoritiladi. Nazariy tahlil natijasida boshqaruv kompetensiyasining kognitiv-bilim, motivatsion-qadriyat, emotsional-irodaviy, kommunikativ-interaktiv, operatsional-faoliyat va refleksiv komponentlardan iborat olti komponentli modeli taklif etiladi. Mazkur model maktab rahbarlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, ularning boshqaruv kompetensiyasini diagnostika qilish metodikalarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: boshqaruv kompetensiyasi, kompetentlik, ijtimoiy-psixologik mohiyat, maktab rahbari, boshqaruv kompetensiyasi tuzilishi, boshqaruv psixologiyasi, kasbiy-shaxsiy sifatlar, ta'lim menejmenti.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРА УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация. В статье представлен теоретический анализ социально-психологической сущности и структуры управленческой компетентности руководителей общеобразовательных организаций. Раскрывается соотношение понятий «компетенция» и «компетентность», проводится сравнительный анализ зарубежных и отечественных научных подходов. Особое внимание уделяется управленческой компетентности как социально-психологическому образованию, формирующемуся в системе профессиональных и межличностных взаимодействий. На основе теоретического анализа обоснована шестикомпонентная структура управленческой компетентности, включающая когнитивно-знаниевый,

мотивационно-ценностный, эмоционально-волевой, коммуникативно-интерактивный, операционально-деятельностный и рефлексивный компоненты. Предложенная модель может быть использована при совершенствовании системы подготовки, переподготовки и повышения квалификации руководителей школ, а также при разработке диагностических инструментов оценки управленческой компетентности.

Ключевые слова: управленческая компетентность, компетенция, социально-психологическая сущность, руководитель школы, структура компетентности, психология управления, профессионально-личностные качества, образовательный менеджмент.

THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL ESSENCE AND STRUCTURE OF MANAGERIAL COMPETENCE AMONG HEADS OF SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract. This article presents a theoretical analysis of the socio-psychological essence and structure of managerial competence among heads of school educational organizations. The distinction between the concepts of "competence" and "competency" is examined, and foreign and domestic scholarly approaches are comparatively analyzed. Particular attention is paid to managerial competence as a socio-psychological construct that develops within professional and interpersonal interactions. Based on the theoretical analysis, a six-component structure of managerial competence is proposed, including cognitive-knowledge, motivational-value, emotional-volitional, communicative-interactive, operational-activity, and reflexive components. The proposed model may serve as a theoretical basis for improving the training, retraining, and professional development of school leaders, as well as for developing diagnostic tools for assessing managerial competence.

Keywords: managerial competence, competency, socio-psychological essence, school leader, competence structure, management psychology, professional-personal qualities, educational management.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ta'lim tizimi inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qo'llab-quvvatlash va jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ta'lim tashkilotlarini samarali boshqarish, ayniqsa, maktab rahbarlarining kasbiy va boshqaruv salohiyatini rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda maktab rahbariga faqat ma'muriy-tashkiliy vazifalarni bajaruvchi boshqaruvchi sifatida qarash yetarli emas. U pedagogik jamoani rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlash, innovatsion jarayonlarni boshqarish, jamoada ijobiy psixologik muhit yaratish, o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar

bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi ko‘plab vazifalarni bajaradi. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi rahbarning boshqaruv kompetensiyasi bilan bevosita bog‘liq.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv zamonaviy kasbiy ta’lim va boshqaruv psixologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Biroq “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mazmuni turli ilmiy maktablarda bir xil talqin qilinmaydi. Shuningdek, boshqaruv kompetensiyasining bilim, motivatsiya, shaxsiy sifatlar, kommunikativ qobiliyat va refleksiv imkoniyatlarni o‘z ichiga oluvchi yaxlit tizim sifatidagi tuzilishi ham alohida tahlilni talab etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi maktab ta’limi tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv kompetensiyasining ijtimoiy-psixologik mohiyatini ochib berish hamda uning asosiy tarkibiy komponentlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining ilmiy talqinlarini tahlil qilish, boshqaruv kompetensiyasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlash va uning tarkibiy komponentlarini tizimlashtirish vazifalari belgilandi.

Adabiyotlar tahlili. Kompetensiya yondashuvining nazariy asoslari xorijiy psixologiyada XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol rivojlana boshladi. D. McClelland kompetensiyani kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydigan individual xususiyatlar bilan bog‘lab, an’anaviy intellekt testlaridan ko‘ra real faoliyat natijalarini prognoz qilishga yo‘naltirilgan yondashuvni ilgari surdi [1].

Mazkur yondashuv R. Boyatzis tomonidan boshqaruv faoliyati kontekstida yanada rivojlantirildi. Olim samarali menejer faoliyatini belgilovchi omillar qatoriga motivlar, shaxsiy xususiyatlar, “Men” konsepsiyasi, ijtimoiy rol va bilimlarni kiritadi [2]. Ushbu yondashuv boshqaruv kompetensiyasining faqat kasbiy bilimlar bilan cheklanmasligini, balki shaxsning motivatsion va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ham qamrab olishini ko‘rsatadi.

L. Spencer va S. Spencer tomonidan ishlab chiqilgan “aysberg modeli” kompetensiyaning tashqi va ichki qatlamlarini farqlash imkonini beradi. Modelga ko‘ra, bilim va ko‘nikmalar kompetensiyaning nisbatan ko‘rinadigan qismini tashkil etsa, motivlar, qadriyatlar, o‘zini anglash va shaxsiy xususiyatlar uning chuqurroq qatlamlarini ifodalaydi [3]. Mazkur yondashuv boshqaruv kompetensiyasini kompleks ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ko‘rib chiqish uchun muhim nazariy asosdir.

Boshqaruv faoliyatining ko‘p qirrali tabiati H. Mintzbergning boshqaruv rollari konsepsiyasida ham o‘z ifodasini topadi. Uning yondashuvida rahbar faoliyati shaxslararo, axborot va qaror qabul qilish bilan bog‘liq turli rollarning majmui sifatida qaraladi [4]. R. Katz esa samarali boshqaruv faoliyati uchun texnik, insoniy va konseptual ko‘nikmalarning uyg‘unligi zarurligini ta’kidlaydi [5].

Mahalliy va MDH psixologiya maktablarida boshqaruv kompetensiyasi masalalari rahbarning kasbiy kompetentligi, boshqaruv madaniyati, ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi va pedagogik jamoani boshqarish muammolari bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. R. Shakurov rahbar va pedagogik jamoa o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni boshqaruv samaradorligining muhim omili sifatida tahlil qilgan [6; 7]. A. Markova kasbiylikni mutaxassisning faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi integral xususiyatlari bilan bog‘laydi [8]. E. Zeer esa kasbiy rivojlanish jarayonida bilim, ko‘nikma, motivatsiya va shaxsiy xususiyatlarning o‘zaro aloqasiga e’tibor qaratadi [9].

O‘zbekistonda boshqaruv psixologiyasi va ta’lim menejmenti masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda rahbar shaxsi, boshqaruv faoliyati, kasbiy kompetentlik va jamoani boshqarishning psixologik jihatlari yoritilgan [10; 11]. O. Hayitovning tadqiqotlarida rahbarlarning psixologik kompetentligini modellashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan [12]. Shuningdek, pedagogik jamoani boshqarishning o‘ziga xos jihatlari ham zamonaviy tadqiqotlarda ko‘rib chiqilgan [13].

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili boshqaruv kompetensiyasining ko‘p komponentli va dinamik hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, maktab rahbarining boshqaruv kompetensiyasini aynan ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan yaxlit model sifatida tizimlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega. Uning metodologik asosini ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va nazariy modellashtirish usullari tashkil etdi. Tadqiqot doirasida boshqaruv kompetensiyasi, kasbiy kompetentlik, boshqaruv psixologiyasi va rahbarlik faoliyatiga oid xorijiy hamda mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilindi.

Manbalarni qiyosiy o‘rganish natijasida boshqaruv kompetensiyasining mazmuniy va tarkibiy jihatlari ajratib ko‘rsatildi hamda maktab rahbarining kasbiy faoliyati uchun muhim bo‘lgan komponentlar tizimlashtirildi.

“Boshqaruv kompetensiyasi” tushunchasining mazmun-mohiyati

Ilmiy adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari ba’zan sinonim sifatida qo‘llanadi. Biroq ularning mazmunini farqlash metodologik jihatdan muhimdir. Kompetensiya muayyan faoliyat sohasida bajarilishi lozim bo‘lgan talablar, bilimlar, ko‘nikmalar va sifatlarning normativ majmuini anglatadi. Kompetentlik esa shaxsning mazkur talablarni real faoliyatda samarali amalga oshira olish darajasini ifodalaydi.

Shu nuqtayi nazardan, boshqaruv kompetensiyasini maktab rahbarining kasbiy-boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma, malaka, motivatsiya va kasbiy-shaxsiy sifatlarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida ta’riflash mumkin. Mazkur ta’rifda “tizim” va “dinamiklik” tushunchalari muhim o‘rin tutadi. Chunki boshqaruv kompetensiyasi bir marta shakllanib, o‘zgarmaydigan xususiyat emas; u rahbarning tajribasi, tashkiliy muhit, ijtimoiy munosabatlar va kasbiy rivojlanishi ta’sirida muntazam takomillashib boradi.

Boshqaruv kompetensiyasining ijtimoiy-psixologik mohiyati

Boshqaruv kompetensiyasi individual xususiyatlar yig‘indisi bilan cheklanmaydi. U rahbar faoliyat yuritadigan ijtimoiy muhitda, turli subyektlar bilan o‘zaro munosabat jarayonida shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Maktab rahbari pedagogik jamoa, o‘quvchilar, ota-onalar, mahalliy hamjamiyat va yuqori turuvchi tashkilotlar bilan muntazam aloqada bo‘ladi. Shu sababli uning kompetentligi kommunikativ va ijtimoiy-psixologik jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq.

Boshqaruv kompetensiyasining muhim jihatlaridan biri ijtimoiy pertseptsiya, ya’ni boshqa insonlarning psixologik holati, ehtiyojlari, motivlari va munosabatlarini to‘g‘ri anglash qobiliyatidir. Rahbar jamoa a’zolarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot strategiyasini tanlashi, nizoli vaziyatlarning sabablarini aniqlashi va ularni konstruktiv tarzda hal qilishi kerak.

Bundan tashqari, boshqaruv kompetensiyasi rahbarning kasbiy o‘zini anglash va o‘z faoliyatini baholash qobiliyati bilan ham bog‘liq. Rahbarning o‘z imkoniyatlarini real baholashi, kuchli va zaif tomonlarini anglay olishi hamda kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini aniqlashi uning boshqaruv faoliyati samaradorligini oshiradi.

Boshqaruv kompetensiyasining tarkibiy tuzilishi

Nazariy tahlil natijalariga ko‘ra, maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini oltita o‘zaro bog‘liq komponent asosida tavsiflash mumkin.

Kognitiv-bilim komponenti rahbarning boshqaruv nazariyasi, pedagogik menejment, ta’lim qonunchiligi, ta’lim sifati, tashkilot faoliyatini rejalashtirish va boshqa boshqaruv yo‘nalishlari bo‘yicha bilimlarini qamrab oladi. Mazkur komponent boshqaruv qarorlarini asoslangan holda qabul qilish uchun zarur bilimlar bazasini yaratadi.

Motivatsion-qadriyat komponenti rahbarning boshqaruv faoliyatiga munosabati, kasbiy motivlari, ta’lim sifatini oshirishga intilishi va tashkilot rivojiga nisbatan mas’uliyat hissini ifodalaydi. Mazkur komponent rahbar faoliyatining ichki motivatsion asosini tashkil etadi.

Emotsional-irodaviy komponent stressli va murakkab vaziyatlarda o‘zini boshqara olish, emotsional barqarorlikni saqlash, mas’uliyatli qarorlarni qabul qilish va qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi.

Kommunikativ-interaktiv komponent rahbarning pedagogik jamoa, o‘quvchilar, ota-onalar va boshqa hamkorlar bilan samarali muloqot qila olishi, nizolarni konstruktiv hal etishi, hamkorlik muhitini shakllantirishi va jamoani umumiy maqsad atrofida birlashtira olishi bilan tavsiflanadi.

Operatsional-faoliyat komponenti bilim va ko‘nikmalarni real boshqaruv faoliyatida qo‘llash qobiliyatini anglatadi. U rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish, qaror qabul qilish va natijalarni baholash kabi amaliy boshqaruv ko‘nikmalarini qamrab oladi.

Refleksiv komponent rahbarning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, qabul qilgan qarorlarini baholashi, xatolarini aniqlashi va keyingi faoliyatini takomillashtirish yo‘llarini belgilashi bilan bog‘liq. Ushbu komponent boshqaruv kompetensiyasining uzluksiz rivojlanishini ta’minlovchi ichki mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur komponentlar alohida va mustaqil birliklar sifatida emas, balki yagona tizimning o‘zaro bog‘liq qismlari sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, rahbarning yetarli bilimga ega bo‘lishi uning kommunikativ yoki refleksiv ko‘nikmalari rivojlanmagan holatda yuqori boshqaruv samaradorligini kafolatlamaydi. Shu sababli boshqaruv kompetensiyasini baholashda uning barcha komponentlari o‘zaro bog‘liqlikda hisobga olinishi lozim.

Natijalar va muhokama. Nazariy tahlil boshqaruv kompetensiyasini faqat bilim va kasbiy ko‘nikmalar yig‘indisi sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko‘rsatdi. Uning mazmunida motivatsiya, qadriyatlar, emotsional barqarorlik, kommunikativ qobiliyat va refleksiya kabi psixologik omillar ham muhim o‘rin tutadi. Bu xulosa kompetensiyaning ko‘p qatlamli tabiati haqidagi xorijiy konsepsiyalar bilan hamohangdir [1–5].

Maktab rahbarining faoliyati doimiy ravishda turli ijtimoiy guruhlar va shaxslar bilan o‘zaro munosabatni talab qilgani sababli boshqaruv kompetensiyasining ijtimoiy-psixologik komponentlari alohida ahamiyatga ega. Rahbarning qaror qabul qilish qobiliyati uning jamoa bilan muloqot qilish, ijtimoiy vaziyatni to‘g‘ri baholash va xodimlarning motivlarini anglash qobiliyati bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.

Taklif etilgan olti komponentli model boshqaruv kompetensiyasining tuzilishini yaxlit tarzda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Kognitiv-bilim komponenti “rahbar nimani biladi?”, operatsional-faoliyat komponenti “rahbar nimalarni bajara oladi?”, motivatsion-qadriyat komponenti “rahbar nima uchun faoliyat yuritadi?”, kommunikativ-interaktiv komponenti “rahbar boshqalar bilan qanday hamkorlik qiladi?”, emotsional-irodaviy komponenti “rahbar murakkab vaziyatlarda o‘zini qanday boshqaradi?” va refleksiv komponenti “rahbar o‘z faoliyatini qanday tahlil qiladi?” kabi savollarga javob beradi.

Shu jihatdan model maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini diagnostika qilishda ham qo‘llanishi mumkin. Bunda har bir komponent uchun alohida mezon va ko‘rsatkichlar ishlab chiqish, ularning rivojlanish darajasini aniqlash hamda natijalarga ko‘ra individual kasbiy rivojlanish dasturlarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotning cheklovlari va istiqbollari

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, taklif etilgan model akademik yoki umumta’lim maktablari rahbarlarining katta tanlanmasida empirik jihatdan tekshirilmagan. Shu sababli olti komponentli tuzilmani yakuniy va universal model sifatida baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Boshqaruv kompetensiyasining namoyon bo‘lishi rahbarning ish tajribasi, ta’lim darajasi, tashkilotning tashkiliy madaniyati, jamoaning xususiyatlari va hududiy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bois keyingi tadqiqotlarda modelning psixometrik xususiyatlarini tekshirish, diagnostik mezonlarni ishlab chiqish va turli guruhlar o‘rtasida qiyosiy tahlil o‘tkazish muhimdir.

Istiqboldagi tadqiqotlarda boshqaruv kompetensiyasining har bir komponentini o‘lchashga imkon beruvchi psixodiagnostik metodikalarni tanlash yoki ishlab chiqish, ekspert baholash va o‘z-o‘zini baholash natijalarini solishtirish, shuningdek, rahbar kompetensiyasi bilan maktab faoliyati samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik o‘rganish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Maktab ta’limi tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasi zamonaviy ta’lim menejmentining muhim psixologik-pedagogik kategoriyalaridan biridir. Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ular mazmun jihatidan farqlanadi: kompetensiya faoliyatga qo‘yiladigan talablar majmuini, kompetentlik esa shaxsning ushbu talablarni real faoliyatda amalga oshirish darajasini ifodalaydi.

Boshqaruv kompetensiyasi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida rahbarning bilim va ko‘nikmalari bilan bir qatorda uning motivatsiyasi, qadriyatlari, emotsional-irodaviy barqarorligi, kommunikativ qobiliyatlari va refleksiv imkoniyatlarini ham qamrab oladi. Shu asosda uning kognitiv-bilim, motivatsion-qadriyat, emotsional-irodaviy, kommunikativ-interaktiv, operatsional-faoliyat va refleksiv komponentlardan iborat olti komponentli tuzilishi taklif etildi.

Mazkur model maktab rahbarlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, boshqaruv kompetensiyasini diagnostika qilish vositalarini ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, modelning amaliy samaradorligi empirik tadqiqotlar orqali tekshirilishi zarur. Kelgusidagi tadqiqotlar boshqaruv kompetensiyasining alohida komponentlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda rahbar faoliyati samaradorligiga ta’sirini aniqlashga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McClelland D. C. Testing for competence rather than for “intelligence” // American Psychologist. — 1973. — Vol. 28, № 1. — P. 1–14.
2. Boyatzis R. E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. — New York: Wiley, 1982.
3. Spencer L. M., Spencer S. M. Competence at Work: Models for Superior Performance. — New York: Wiley, 1993.
4. Mintzberg H. The Nature of Managerial Work. — New York: Harper & Row, 1973. — 298 p.
5. Katz R. L. Skills of an Effective Administrator // *Harvard Business Review*. — 1955. — Vol. 33, № 1. — P. 33–42.

6. Шакуров Р. Х. Директор школы и педагогический коллектив: социально-психологический аспект. — К.: Радянська школа, 1975. — 143 с.
7. Шакуров Р. Х. Социально-психологические основы управления: руководитель и коллектив. — М.: Просвещение, 1990.
8. Маркова А. К. Психология профессионализма. — М., 1996.
9. Зеер Э. Ф. Психология профессий: учебное пособие для вузов. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003. — 336 с.
10. Karimova V. va boshq. Boshqaruv psixologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. — 208 b.
11. G'oziyev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. — Toshkent: O'zMU, 2001.
12. Hayitov O. E. Oliy ta'lim muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish: psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi: 19.00.05. — Toshkent: TDPU, 2020. — 250 b.
13. Nurmatov U. Pedagogik jamoa va uni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari // O'zMU xabarlari (ACTA NUUz). — 2024. — № 1/10. — B. 135–137.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694